OMMAVIY OFERTA

(“Yaxlitlash va jamg‘arish”/ “Omonatda qaytim yig’ish” xizmatidan foydalanish to‘g‘risida)

2026-yil 1-iyuldan boshlab amal qiladigan tahrir.

Mazkur hujjat “TBC Bank” ATB (STIR 207318613) (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan “TBC UZ” mobil ilovasida identifikatsiyalangan bank kartasini saqlovchilari bo‘lgan jismoniy shaxslarga (keyingi o‘rinlarda – Mijoz) “Yaxlitlash va jamg‘arish” xizmatidan (keyingi o‘rinlarda – Xizmat) foydalanish to‘g‘risida shartnoma tuzish uchun taqdim etilgan rasmiy taklif (keyingi o‘rinlarda – Oferta) hisoblanadi.

Ushbu Oferta Xizmatga ulanish va undan foydalanish shartlarini belgilaydi.

Mijozning Ilovada Xizmatni ulash bo‘yicha harakatlarni amalga oshirishi, jumladan yaxlitlash parametrlarini va mablag‘larni o‘tkazish uchun hisobraqamni tanlashi Ofertani qabul qilish deb hisoblanadi. Oferta qabul qilingan vaqtdan boshlab Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Mijoz Xizmatdan foydalanishni boshlashdan oldin ushbu Oferta shartlari bilan tanishib chiqishi shart. Oferta shartlariga rozi bo‘lmagan taqdirda, Mijoz Xizmatga ulanishdan va undan foydalanishdan voz kechishi lozim.

Mazkur Oferta bilan tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya etadilar.

1. ATAMA VA TA’RIFLAR

Ushbu Oferta maqsadlarida quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

1.1. **Mijoz** - Bank tomonidan emissiya qilingan amaldagi “Salom Visa” bank kartasining saqlovchisi bo‘lgan va Bankda “Odat” nomli talab qilib olinguncha omonat ochgan jismoniy shaxs.

1.2. **Karta** - Bank tomonidan chiqarilgan Salom Visa debet bank kartasi.

1.3. **Yaxlitlash chegarasi** - Mijoz tomonidan tanlangan va operatsiya summasi yaxlitlanadigan qiymat.

1.4. **Yaxlitlash** – Karta bo‘yicha xarid summasi va Mijoz tomonidan tanlangan yaxlitlash chegarasi o‘rtasidagi farqni hisoblash bo‘yicha alohida operatsiya, bu holda bunday farq Yaxlitlash summasi sifatida aniqlanadi va Omonatga o‘tkaziladi.

1.5. **Yaxlitlash summasi** - Karta orqali amalga oshirilgan xaridning amaldagi summasi bilan Yaxlitlash natijasida olingan summa o‘rtasidagi farq.

1.6. **Ilova-** Bankining “TBC UZ” mobil ilovasi.

1.7. **Omonat** - Mijoz tomonidan O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ochilgan va yaxlitlash summalarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan "Odat" nomli talab qilib olinguncha saqlanadigan bank omonati (hisobvarag‘i).

1.8. **Shartnoma** - Bank va Mijoz o‘rtasida ushbu Ofertani qabul qilish orqali tuziladigan Xizmatdan foydalanish shartnomasi.

2. UMUMIY SHARTLAR

2.1. Ushbu Oferta Mijozlarning Bank tomonidan chiqarilgan Salom Visa debet kartasidan foydalangan holda Karta bo‘yicha xarid operatsiyalari summalarini yaxlitlash orqali pul mablag‘larini avtomatik to‘plash xizmatini (bundan keyin “Xizmat” deb yuritiladi) ulash va undan foydalanish shartlarini belgilaydi.

2.2. Oferta qabul qilingan vaqtdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.3. Xizmat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq ko‘rsatiladi.

2.4. Mazkur Shartnoma Bankning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlar (bundan keyin “BSh”) bilan birgalikda qo‘llaniladi.

2.5. Ushbu Ofertada ta’rifi keltirilmagan atamalar BShda belgilangan ma’nolarda qo‘llaniladi.

2.6. Xizmat Mijozga bepul asosda taqdim etiladi. Bank xizmatga ulanish va undan foydalanish uchun komissiya undirmaydi.

3. XIZMATGA ULANISH TARTIBI VA UNDAN FOYDALANISH SHARTLARI

3.1. Bank Mijozga Karta orqali amalga oshirilgan xarid operatsiyalari summalarini Yaxlitlash yo‘li bilan Omonatda pul mablag‘larini avtomat tarzda jamg‘arish imkoniyatini taqdim etadi, pul o‘tkazmalari, kreditlar bo‘yicha operatsiyalar, boshqa kredit tashkilotlaridagi operatsiyalar, depozitlar bo‘yicha operatsiyalar, Ilovaning “To‘lovlar” bo‘limidagi xizmatlar uchun to‘lov operatsiyalari, shuningdek, Bankning tariflari va/yoki shartlariga muvofiq Yaxlitlash qo‘llanmaydigan MCC-kodlar bo‘yicha operatsiyalar bundan mustasno.

3.2. Mijoz Xizmatni Ilova orqali mustaqil ravishda ulaydi.

3.3. Xizmatga ulanishda Mijoz mustaqil ravishda quyidagilarni amalga oshiradi:

3.3.1. Yaxlitlash chegarasini belgilaydi;

3.3.2. Yaxlitlash summalarini jamg‘arish uchun Omonatni tanlaydi;

3.3.3. Xizmatning ulanishini tasdiqlaydi.

3.4. Xizmatni faqat Bankda amaldagi omonat va faol karta mavjud bo‘lgandagina ulash mumkin.

3.5. Mijozda amaldagi Omonat va faol Karta mavjud bo‘lmagan taqdirda, Mijoz Ilovada ko‘rsatilgan Mijozning roziligi asosida Omonat shartnomasini tuzishi va Karta chiqarishni rasmiylashtirishi lozim.

3.6. Yaxlitlash qo‘llaniladigan Karta orqali xaridning minimal summasi 1 (bir) so‘mni tashkil etadi. Mijoz 1 000 (bir ming) so‘mdan 100 000 (yuz ming) so‘mgacha bo‘lgan yaxlitlash chegarasini mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega.

3.7. Xizmatni ulash orqali Mijoz Bankka ulangan Xizmat doirasida qo‘shimcha tasdiqlovsiz Mijoz kartasidan Yaxlitlash summalarini yechib olish va ularni Mijoz tanlagan Omonatga o‘tkazish orqali Yaxlitlashni amalga oshirish topshirig‘ini beradi.

3.8. Yaxlitlash Karta orqali tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lov operatsiyalariga qo‘llanadi. Yaxlitlash bekor qilish, qaytarish, naqd pul yechish, hisobvaraqlar/kartalar o‘rtasidagi o‘tkazmalar, pul mablag‘larini amalda yechib olmasdan bajariladigan operatsiyalar, shuningdek, ushbu Ofertada nazarda tutilgan boshqa hollarda qo‘llanilmaydi.

4. OPERATSIYALARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

4.1. Yaxlitlash faqat Mijozning Kartasida asosiy operatsiyani ham, Yaxlitlash operatsiyasini ham amalga oshirish uchun yetarli mablag‘ qoldig‘i mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi.

4.2. Karta orqali tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov operatsiyasi (asosiy operatsiya) va Yaxlitlash operatsiyasi alohida operatsiyalar hisoblanadi va alohida aks ettiriladi.
4.3. Omonatning eng maksimal summasiga yetganda, Bank Bankning ixtiyoriga ko‘ra, Mijozni Bankning funksionalligida ko‘zda tutilgan mavjud aloqa kanallari orqali xabardor qilgan holda, Yaxlitlash operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.
4.4. Yaxlitlash Mijozning qo‘shimcha tasdig‘isiz avtomat tarzda amalga oshiriladi.
4.5. Ilgari yaxlitlash summasi hisoblangan Karta operatsiyasi bekor qilingan, qaytarilgan yoki stornlash holatlarida, Yaxlitlash avtomat ravishda bekor qilinmaydi. Mijoz Omonatga o‘tkazilgan Yaxlitlash summasini tegishli Omonat shartnomasi tartibida va shartlarida tasarruf etish huquqiga ega.
4.6. Yaxlitlash O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisob-kitob qilingan operatsiyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Xorijiy valyutada amalga oshirilgan operatsiyalar uchun yaxlitlash, operatsiya summasi Mijozning kartasidan haqiqatda yechib olingan sanadagi tegishli operatsiya bo‘yicha hisob-kitoblar uchun belgilangan Bank kursi bo‘yicha so‘mda hisoblangan operatsiya summasiga nisbatan qo‘llaniladi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
5.1.1. Mijozda Xizmat faol bo‘lgan davrda yaxlitlash chegarasini o‘zgartirish;
5.1.2. Ilovada xizmatni istalgan vaqtda o‘chirib qo‘yish.
5.2. Mijoz majburiyatlari:
5.2.1. mazkur Oferta talablariga rioya qilish;
5.2.2. Ilovaga kiriladigan qurilma xavfsizligini ta’minlash, jumladan parollar va kirish kodlarini himoya qilish hamda dasturiy ta’minotni o‘z vaqtida yangilab turish;
5.2.3. Xizmatdan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid maqsadlarda foydalanmaslik;
5.2.4. Ilovaga kirish uchun foydalaniladigan qurilma yoki mobil telefon raqami yo‘qolganda, o‘g‘irlanganda yoki xavf ostida qolganda Bankni darhol xabardor qilish;
5.2.5. Bankning Ilova orqali yuboriladigan xabarlarini, shu jumladan Xizmat shartlarining o‘zgarishi haqidagi xabarlarni mustaqil ravishda kuzatib borish;
5.2.6. Ilova yoki Xizmatdan foydalanish imkonini beruvchi shaxsga doir ma’lumotlarni, jumladan, parollar, kirish kodlari va boshqa ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslik;
5.2.7. Karta bo‘yicha operatsiyalarni va Yaxlitlash operatsiyalarini mustaqil tekshirish hamda shubhali operatsiyalar to‘g‘risida Bankni o‘z vaqtida xabardor qilish.
5.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:
5.3.1. ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartibda oldindan xabardor qilgan holda Xizmat shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish;
5.3.2. texnik sabablarga ko‘ra Xizmat ko‘rsatishni vaqtincha to‘xtatish;
5.3.3. Xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq limitlar va boshqa cheklovlarni, jumladan, Yaxlitlash summasi, shuningdek, Karta va Omonat operatsiyalari bo‘yicha cheklovlarni belgilash;
5.3.4. Mijoz ushbu Oferta shartlarini buzgan hollarda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda Xizmat ko‘rsatishni bir tomonlama tartibda to‘xtatib qo‘yish;
5.3.5. quyidagi hollarda Yaxlitlash operatsiyalarini amalga oshirmaslik:
5.3.5.1. Mijozning kartasida pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa;
5.3.5.2. belgilangan limitlarga yetganda yoki Karta yoxud Omonat bo‘yicha cheklovlar mavjud bo‘lganda;

5.3.5.3. texnik nosozliklar yuz berganda;
5.3.5.4. operatsiyani amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa holatlar.

5.4. Bank majburiyatlari:

5.4.1. Bankning texnik imkoniyatlari doirasida Xizmatning ishlashini ta’minlash;

5.4.2. Yaxlitlash operatsiyalarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirilishini ta’minlash;

5.4.3. O‘zbekiston Respublikasining bank siri to‘g‘risidagi amaldagi qonunchiligi talablariga rioya etish va Xizmatni ko‘rsatish jarayonida Bankka ma’lum bo‘lgan Mijozning shaxsiy ma’lumotlari saqlanishini ta’minlash;

5.4.4. mazkur Ofertada nazarda tutilgan usullar orqali Xizmat shartlari haqidagi ma’lumotlarni Mijozga yetkazish.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

6.2. Mijoz ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar bo‘ladi.

6.3. Mijoz Xizmatga ulanish va undan foydalanishda qo‘llaniladigan shaxsiy ma’lumotlari hamda tizimga kirish ma’lumotlarining daxlsizligi uchun mas’uldir.

6.4. Bank ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi, agar bunday bajarmaslik Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa.

6.5. Bank Mijozning ushbu Oferta shartlari bilan tanishib chiqmaganligi va/yoki o‘z vaqtida tanishib chiqmaganligi sababli yuzaga kelgan har qanday zarar va/yoki boshqa oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.6. Agar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar Bankka bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa, Bank buning uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.7. Bank bilvosita zararlar, boy berilgan foyda, shuningdek, telekommunikatsiya tarmoqlari, Mijoz qurilmasi ishdan chiqishi yoki Bankning oqilona nazorati doirasida bo‘lmagan uchinchi shaxslar harakatlari tufayli yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar bo‘lmaydi. Bu, xususan, yuqorida ko‘rsatilgan holatlar operatsiyani bajarishga imkon bermagan yoki uning o‘z vaqtida bajarilmasligiga olib kelgan taqdirda ham amal qiladi.

6.8. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bu holat Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan hamda Tomonlar oqilona choralar bilan oldindan ko‘ra bilmagan yoki oldini ola olmagan yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari tufayli sodir bo‘lgan bo‘lsa.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

7.1. Mijoz istalgan vaqtda ilovada xizmatni o‘chirib, undan foydalanishni rad etish huquqiga ega.

7.2. Xizmat o‘chirilgan vaqtdan boshlab shartnoma bekor qilingan hisoblanadi, Tomonlarning Shartnomani bekor qilish sanasigacha yuzaga kelgan majburiyatlari bundan mustasno.

7.3. Mijoz Ilovadagi hisob qaydnomasini o‘chirsa, Xizmat avtomat ravishda o‘chiriladi va Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

8. NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Mijozlarga texnik yordam xizmatlari Bankning aloqa kanallari orqali ko‘rsatiladi. Mijozlarning murojaatlari Bankning qo‘llab-quvvatlash xizmati tomonidan contact@tbcbank.uz elektron pochtasi, Bankning rasmiy www.tbcbank.uz veb-saytida ko‘rsatilgan telefon raqami, shuningdek, Ilova orqali qabul qilinadi.

8.2. Ushbu Ofertadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan o‘zaro tinchlik yo‘li bilan hal etilishi shart.

8.3. Agar Tomonlar ushbu Ofertaning 8.2-bandiga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishga erisha olmasalar, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va amaldagi tahriri Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan “TBC Bank” ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga muvofiq Bank joylashgan joydagi sud tartibida hal qilinishi lozim.

9. O‘ZGARISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

9.1. Bank www.tbcbank.uz veb-saytida va/yoki Ilovada Ofertaga kiritilgan o‘zgartirishlar matnini joylashtirish orqali ushbu Ofertani bir tomonlama tartibda o‘zgartirish huquqiga ega.

9.2. Ofertaning o‘zgartirilgan tahriri www.tbcbank.uz veb-saytida va/yoki Ilovada joylashtirilganidan keyin 10 (o‘n) kalendar kun o‘tgach, biroq ushbu Ofertada ko‘rsatilgan sanadan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga kiradi. Agar ushbu Ofertaning alohida shartlari Bankning ichki hujjatlari bilan ham tartibga solinsa, bunday shartlar tegishli hujjatlarda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda o‘zgartiriladi.

9.3. Agar Mijoz Ofertaning o‘zgartirilgan tahriri kuchga kirguniga qadar ushbu Shartnomaning 7-bandida nazarda tutilgan bekor qilish huquqidan foydalanmasa, o‘zgartirishlar Mijoz tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

9.4. Agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, Mijoz Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o‘tkazishga haqli emas.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Shartnomada to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar Bosh Shartlarga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ish yuritish an’analariga amal qiladilar.

10.2. Mazkur Oferta Bankning veb-saytida va/yoki Ilovada joylashtiriladi hamda Shartnomaning to‘liq amal qilish muddati davomida Mijozning tanishib chiqishi uchun taqdim etiladi.

10.3. Mijoz tomonidan Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida kafolatlanadi.